

## DINIY BAG'RIKENGLIK

*Ilmiy raxbar: Samatov. X  
Shomurodov Dilshodbek*

*TATU Samarqand Filiali (Kompyuter injiniringi)  
KI23-04 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola diniy bag`rikenglik o`zingiznikidan farq qiladigan ma`naviy qadriyatlar, e`tiqodlar va urf-odatlarini qadrlay olish kabi mavzular tug`risida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** din, dunyo, fikr, milliy, hudud, hukumat, shaxs, ma`rifat, markaziy, halollik, e`tiqot.

**Diniy bag`rikenglik**- boshqacha diniy qarashlar, axloqlar va turmush tarziga nisbatan murosa qilib yashashga odatlanish. Qator mamlakatlarda ko`p sonli diniy e`tiqod egalari bilan birga kam sonli boshqa dinga e`tiqod qiluvchilar birgalikda, yagona jamiyatda hamkor, hamnafas bo`lib yashashlarining zarur sharti. Diniy bag`rikenglik tobora o`zini g`ayri insoniy mohiyatini ko`rsatib, soxta diniy shiorlar ostida gunohsiz odamlarning halok bo`lishlariga sabab bo`layotgani diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilgan harakat hamdir. O`z diniy qarashlari haqligiga qattiq ishongan, e`tiqod qo`ygan, boshqacha diniy qarashlar bilan erkin musoxabaga kira olish malakasiga ega bo`lgan individlarda diniy bag`rikenglik yaqqol namoyon bo`ladi. O`zbekiston xalqlarining diniy bag`rikenglik an`analari o`zining ham milliy, ham umumbashariy mohiyati bilan purviqordir. Mamlakatimizda davlat va din o`rtasidagi munosabatlar diniy bag`rikenglik tamoyillariga asoslangandir.

**Din** – bu insonning dunyo haqidagi fikrlashi, qarashlari va o`zaro munosabatiga ta`sir qiluvchi e`tiqod yoki ibodat tizimi. Insonning dini ko`pincha axloqiy va tarbiyaviy e`tiqodlarining asosidir. Ko`plar uchun din tasalli manbai hisoblanadi.

Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o`zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O`zbekistonda milliy va diniy bag`rikenglik hukm surmoqda. Bag`rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e`tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda oliyjanob g`oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo`lida hamkor, hamfikr va hamjihat bo`lib yashashni anglatadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o`rin egallayotgan bag`rikenglik tamoyili to`g`risida shunday deydi: “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko`p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo`stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma`nodagi bag`rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo`lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

O‘zbekistonning kelajagi tinchlik va bag‘rikenglik, madaniyatlararo uyg‘unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e‘tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an‘analarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

2017 yil 30 may kuni ushbu dolzarb masalaga bag‘ishlab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan O‘zbekiston Milliy matbuot markazida “Milliy va diniy bag‘rikenglik – tinchlik va barqarorlik garovi” mavzuida matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirda respublikamizning sharqshunos va dinshunos olimlari, taniqli ulamolar, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan milliy madaniy markazlar va turli konfessiyalar vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari mutasaddilari ishtirok etdilar.

Istiqlol yillarida respublikamizda turli din vakillarining hech qanday to‘siqlarsiz o‘z dinlariga e‘tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Fuqarolar e‘tiqodlaridan kelib chiqqan holda diniy tashkilotlarga birlashib, mustaqil huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritishi, diniy mutaxassislar tayyorlashlari va adabiyotlarni nashr etishlari, diniy bayram va marosimlarini o‘tkazishlari, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil etishlari kafolatlandi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining soni 31 milliondan oshgan bo‘lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Aholining 94% islom diniga, 3,5%ga yaqini pravoslav va qolganlari boshqa konfessiyalarga mansublarni tashkil etadi.

Respublikamizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2239 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2065 tasi islomiy, 157 tasi xristian tashkilotlar, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va budda ibodatxonasi mavjuddir. Bundan tashqari, respublikada konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Anjumanda mamlakatimizda millatlararo va dinlararo munosabatlar sohasida yuritilayotgan oqilona siyosat asosida har bir shaxsning vijdon va e‘tiqod erkinligi, diniy qarashlaridan qat’i nazar tenghuquqliligi ta‘minlanayotgani, shuningdek, respublikamizdagi diniy tashkilotlar jamiyatda tinchlik, osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlikni mustahkamlash borasida sermahsul faoliyat ko‘rsatib kelayotganliklari qayd etildi.

O‘zbekistonda milliy va diniy sohada olib borilayotgan siyosat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” moddalari va ruhiga hamohang ekani hamda davlatimiz vijdon erkinligini ta‘minlash borasida o‘z zimmasiga olgan barcha xalqaro shartnomalarni to‘la-to‘kis bajarib kelayotgani alohida ta‘kidlandi.

Anjumanda bugungi kunda dunyoning qator mamlakatlarida, ayniqsa, Yaqin

Sharq mintaqasida etnik va diniy asosdagi nizolar kuchayib borayotgani, bu kabi nizolarni avj oldirayotgan g‘arazli kuchlarning o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida turli nashrlar, teleradiodasturlar va internet sahifalarida amalga oshirayotgan axborot xurujlariga nisbatan “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotganiga e’tibor qaratildi.

Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoning uzoq-yaqin turli hududlarida tashvishli voqealar tobora keskinlashib borayotgan bir vaziyatda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlash, diniy bag‘rikenglik va hamkorlik g‘oyalarini keng yoyish, adovat va murosasizlikka olib boruvchi har qanday yo‘lning payini qirqish muhim ahamiyat kasb etishi, shu bois, bugungi murakkab bir davrda insoniyat uchun tinchlik, barqarorlik ne’matlari qanchalik ulkan qiymatga ega ekanini chuqur anglab yetmog‘imiz darkorligi aytiladi. 2016 yilning 29 oktyabr kuni Respublikada faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar rahbarlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvdan so‘ng, AQSh Davlat kotibi o‘rinbosari Tomas Shennon O‘zbekiston Hukumatining diniy sohada olib borayotgan izchil siyosatga yuqori baho bergan.

Shuningdek, BMT Inson huquqlari bo‘yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning 2017 yil 11 may kuni Samarqand shahrida faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar hamda milliy-madaniy markazlar rahbarlari bilan bo‘lgan uchrashuv davomida “Bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo‘lib turgan tahlikali kunlarda O‘zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlikni turli davlatlar tomonidan o‘rnak bo‘lishga loyiq” - degan so‘zlari ham alohida e’tiborga molikdir.

Tadbirda diniy ekstremizm va murosasizlikka qarshi mafkuraviy kurashning muhim omili sifatida yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish ekani qayd etildi hamda bag‘rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo‘llari, imkoniyatlari va bu boradagi ustivor vazifalar yoritib berildi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo‘lmagani kabi, bag‘rikengliksiz tinchlik ham bo‘lmaydi, deb ta’kidlandi.

Dunyoda globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan bugungi kunda turli madaniyat va dinga mansub xalqlar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Zero, bugun yakka shaxs yoki alohida millat va davlatning o‘z qobig‘idan chiqmasdan taraqqiy etishi tasavvurga sig‘maydi. Bunda esa, avvalo, bag‘rikenglik tamoyili ustivor bo‘lmog‘i zarur. O‘z navbatida, mazkur tamoyilning qaror topishi har qanday davlatning tinch, osoyishta va farovon hayotiga ham kafolatdir.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalar haqida to‘xtalar ekan, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish taklifini ilgari surgan edi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasi 51-

yig'ilishida mazkur rezolyutsiya 193 ta a'zo mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi.

“Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasining aynan O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilishida o'ziga xos ramziy ma'no bor. Bugun millatlararo totuvlik va konfessiyalararo bag'rikenglikni ta'minlash borasida O'zbekiston namunasi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston zaminida azaldan islom dini bilan yonma-yon boshqa dinlar, madaniyatlar ham yashab, rivojlanib kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalar mavjud bo'lgani, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

Yurtimizda bag'rikenglik va murosaning ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatgan turli dinlar madaniyati bo'yicha izlanishlar qilgan yapon olimi Kyudzo Katoning ta'kidlashicha, Surxondaryo vohasidagi noyob budda madaniyati va yahudiy yodgorliklari, Buxorodagi nasroniylar ziyoratgohlari yurtimizdagi islom obidalari bilan bir qatorda turishi hech kimni ajablantirmaydi.

Jahondagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Din odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Aksariyat dinlar bu dunyoni foniy, o'tkinchi deb hisoblaydi. Ular insonning yashashdan asl maqsadi bu dunyoda xayrli, savob ishlar qilish, degan g'oyani targ'ib etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish o'z aksini topgan. Xususan, yahudiylar jamoasi vakillaridan biri R.Bensman shu haqda to'xtalar ekan, Bu xoroda dastlabki sinagoga VIII asrdayoq qurilgani, boshqa din vakillari bilan bir qatorda o'z dinlariga erkin e'tiqod qilish uchun o'sha paytda ham sharoit yaratib berilganini ta'kidlab: “O'rta asr Yevropasi va Vizantiya imperiyasidan quvg'in qilingan yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan bir xil huquqqa ega edi”, deb yozadi.

Shu o'rinda arxiyepiskop Vladimirning fikrlarini ham keltirish joiz deb bildik: “XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab ko'chirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganda mahalliy aholi ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan. O'sha davr voqealarini ko'rgan iyeromonax Xariton “...Mahalliy aholi nochor ko'chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo'ldilar, busiz ularning ko'pchiligi ochlik va muhtojlikdan o'lib ketgan bo'lar edilar”, deb guvohlik bergan”.

**ADABIYOTLAR**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Diniy\\_bag%E2%80%99rikenglik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Diniy_bag%E2%80%99rikenglik)
2. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=455>
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2021-yil 09-iyun, 116-son 6-bet.
4. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/27167-bag-rikenglik-azaliy-qadriyat>
5. <https://darakchi.uz/oz/132024>

